

Mizdaxqon nekropoli

Idrisov Imalatdin Regan uli

Qoraqalpog davlat universiteti Tarix fakulteti 3-kurs talabasi.

Salamat Arepbaevich Sulaymanov

Tarix fanlari doktori docent.

Annaotatsiya: Maqolada Qoraqalpog'iston hududidagi qadimgi diniy an'analar ularning o'ziga xos jihatlari, Mizdaxqon nekropolidagi ossuariylarning taqdqiqot tarixi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ossuariy, zardushtiylik, Avesto, Mizdaxqon, S.P.Tolstov, A.Y. Yakubovskiy, Dunyo soati, aratov, Qusxanatov, Portlitov, Jumirtov tizmalari, Ustyurt balantligi, Yu.V. Gnorozov.

KIRISH:

Qoraqalpog'iston hududiga Islom dini kirip kelishidan oldin ham mahalliy diniy dasturlar bor bo'lganini o'tgan davrdagi keng qamrovli tadqiqot ishlari to'liq isbotladi. Ya'ni bizning zaminimizda ham erta davrlardan e'tiboran o'ziga xos madaniy turmush tarzi shakllangan. Xususan, Janubiy Orol sohillarida yashagan qavmlar daslab har xil mahalliy dinlarga e'tiqod qilgan bo'lsa, eramizdan avvalgi VI asrda bu hududlarga Ahamonyilar mamalakati bostirib kelishi bilan yagona din zardushtiylik diniga aylandirildi. Ayrim manbalarga asoslanadigan bo'lsak zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoning vatani Janubiy Orol sohillari deb yuritiladi. Bunga sabab bo'luvchi yana bir omil sifatida Qoraqalpog'iston hududidagi birqancha zardushtiylik dinining dafn etish joylari - nekropollarning borligini ko'rsatish mumkin. Xojayli tumanidagi Mizdaxqon arxeologik kompleksi aynan shunday joylar safidan joy olgan.

Mizdaxqon nekropoli - shahar markazidan 7-8 km g'arbda joylashgan bo'lib umumiy 200 gektar maydonni bant qilgan. Bu yerda juda qadimgi davrlarga oid qabrlar topib tadqiq qilingan. Hatto ularning ayrimlarining yoshi 2400 yil deb taxmin qilinadi. Mizdaxqon O'rta Osiyodagi eng yirik qabristonlardan biri va bugungi kunda ham mahalliy aholi tarafidan marhumlarni shu qabristonga dafn qilish davom etmoqda. Bu esa ko'pgina tadqiqotlarga to'sqinlik qilmoqda. Marhumlarni ko'mish uchun qazilayotgan qabrlardan ossuariylarning topilishi kuzatilmoqda. Hozircha mu muammoga tuman hokimligi tarafidan aniq bir to'xtamga kelinmagan. Arxeologik nazar bilan qaraydigan bo'lsak



Mizdaxqon juda noyob diniy maskan bo'lib bu joy islom dinidan avvalgi zardushtiylik dini vakillarining dafn joyi ya'ni ossuariylar daxmasi sanaladi.

Yodgorlik tarixi haqida birqancha afsonalar tarqalgan. Ulardan biriga ko'ra qabrison hududida "Dunyo soati" bor, unga asoslanadigan bo'lsak soat dunyoda hayotning so'nggiga qadar ortga qaytadi. Har yili soat devoridan g'ishtlar qulab tushadi va so'nggi g'isht tushishi bilan zamonimizning o'z nihoyasiga yetar ekan. Shu sababli, muqaddas qadamjoga ziyorat qilish maqsadida tashrif buyurganlarning ko'pchiligi toshlarni ustma-ust qo'yib tartib bilan taxlab ketishga harakat qilishadi.

Mizdaxqonda arxeologik tadqiqot ishlarini 1928-yili A.Y. Yakubovskiy boshlab bergan. Keyinroq bu hududda S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tadqiqot ishlarini olib borgan. Mizdaxqondagi qabristonga zardushtiylik diniga e'tiqod qiluvchi marhumlarning suyaklari ossuariylarga solib dafn etilgan. Ossuariylarda turli xil mazmunlardagi naqshlar va qadimgi Xorazm tilidagi yozuvlar saqlanib qolgan.

Nekropol uzoqdan ko'zga tashlanadi, chunki u Xojayli yaqinidagi uch tepalikda turkiy cho'llar orasida joylashgan. Mizdaxqon toponimi haqida aniq ma'lumotlar yetib kelmagan. Ammo bu joy atamasi Avestoda zardushtiylikda yaxshilik ma'budasi Axuramazda ismi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Zardushtiylik dinini qabul qilgan birinchi inson Gayomard komplekstegi Jumart qassob tepaligiga dafn qilingan. Ko'plab olimlar bu versiyani Odam ato qabri bilan bog'laydi. Tepalikga Jumart qassob nomi berilishining ham o'ziga xos sababi bor. XIX va XX asr boshlarida yozib olingan afsonalar bo'yicha bu joyda ilgari vaqtlari ocharchilik zamonlarning birida Jumart qassob ismli avliyo inson yashagan. U yaqin atrofdagi insonlarga xizmat qilib ularning go'sht yetkazib bergan saxovatli qassob bo'lgan. 1987-yili Jumart qassob tepaligi qazib tadqiq qilindi. Natijada bu joyda erta zamonlarda balantligi 4 metr, eni 40 metr bo'lgan tarixiy tepalik turganligi uning ustida zardushtiylik dini an'alariga oid ossuariylarning tashlanganligini tasdiqlovchi materiallar topildi. Demak bu 1960-yillarda Jumart qassobdan 300 metr janubda ochilgan odam suyaklari joylangan yuzga yaqin ossuariylarga tepalikning to'g'ridan to'g'ri bog'liqligi borligini anglatadi. Ya'ni bu zardushtiylik diniy urf-odatlariga tegishli marhumlarning suyagini etidan tozalaydigan joy - daxma deb hisoblash mumkin. Tajribali olimlar S.P.Tolstov va Yu.V. Gnorozolarning Jumart atamasini qadimgi rivoyatlardagi Gavmardga ya'ni Kayomarsga bog'liqligi borligini ta'kidlab o'tishgan edi. Ko'plab tadqiqotlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak Jumart qassob tepaligi eramizning boshlaridan X asrga qadar Gavmart deb nomlanib va o'lik odamlarning suyaklarini go'shtidan tozalaydigan joy - daxma vazifasini bajaradi. Islom dinining majburan joriy etilishi bilan, IX asr ikkinchi yarmidan boshlab marhumlar yangi an'analarga ko'ra dafn qilingan. Shu munosabat bilan tepalikning yuqori qismiga tuproq uyilib, uning balantligi va hajmi ikki baravar ortirilgan.

Qabristonga dafn qilingan marhumlarning bosim ko'pchiligi o'troq o'zargani ko'chmanchi oila vakillari bo'lishi ham mumkin.

Mizdaxqon kompleksidagi zardushtiylik an'analarni Qaratov, Qusxanatov, Portlitov, Jumirtov tizmalari, Ustyurt balantligi, shu bilan birga, boshqa balant tepaliklarda ham kuzatish mumkin.

Umuman olganda kompleks ikki tepalikdan iborat. Biri uning qadimgi qismi Gavurqal'a bo'lsa, ikkinchi qismi qabristonlar bilan qoplangan shuning uchun yodgorlikning katta qismi hali tadqiq qilinmagan. Aslida esa Mizdaxqon manbalari juda kam bo'lgan islom madaniyati tarqalishiga qadar bo'lgan davrga oid noyob yodgorliklardan hisoblanadi. Yodgorlikning asosiy tarixiy ahamiyati ham mana shu omilga borib taqaladi. Lekin hozircha yodgorlikning tadqiq qilinmagan qismidagi meroslar biz uchun jumboqligicha qolmoqda.

Adabiyotlar:



1. Ягодин В.Н., Холжайов Т.К., Некрополь древнего Миздакхана Т-1970
2. Ғ.Хожаниязов "Қарақалпақстандағы муқаддес орынлар" - Нөкис - 1994
3. Ғ.Хожаниязов, Ж.Хақимниязов "Қаралпақстанның әжайип жети естелиги" Нөкис - 2004
4. Кеңесбай Қунназаров " Қаралпақстанның қала хәм районлары " Нөкис - 2016

